

PEDAGOGIKADA BO'LG'UVSI O'QITUVCHILARNI KREATIV KOMPETENTLIK MOHIYATI

Tulishov G'olib Ravshanovich

O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

"Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Zamonaviy yondashuvlar integrasiyasida oliy ta'lim muassasi o'qituvchisining kreativ kompetentligi mazmuni va tuzilmasini o'rganish, kreativlik indikatorlarini belgilash asosida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish o'qituvchilarining kreativ faoliyat malakalarini shakllanish bosqichlarini o'rganish borasida fikir mulohaza yuritamiz.

Kalit so'zlar: kreativ kompetentlilik, kreativ qobiliyatlar, kompetensiya, kreativlik, kreativlik-ijodiylik, ijod, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyatlar, kreativ salohiyat, kompetent yondashuv.

KIRISH

O'zbekistonda keng ko'lamli, ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshiryapmiz, deb ta'kidladi davlatimiz rahbari. Kreativ kompetentlik tushunchasining ta'rifi, uzliksiz ta'lim tizimida uning shakllanishi va rivojlanishi masalalari, shuningdek ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarning konkret predmeti sifatida ko'rib chiqilishiga ehtiyoj mavjud. Bizning fikrimizcha, bunday tushunchalar quyidagilar: "kompetentlilik", "kompetensiya", "kompetentli yondashuv", "kreativlik", "ijod", "ijodiy faoliyat". Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005 y.). "Kreativ kompetentlik" tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berishda quyidagi zamonaviy ta'limiy yondashuvlaridan foydalanish imkonini berdi:

gnoseologik yondashuv (g'oya, tasavvur, kontseptsiyalarni yaratish, empirik va hissiy bilish, tafakkur va uning shakllari tushuncha, hukm, xulosalarni paydo bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish) asosida bilishga oid (gnostik) malakalarning rivojlanishi; tizimli yondashuv (o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini tizim sifatida ko'rib, kreativ kompetentsiyani pedagogik mahorat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'zaro funksional bog'liq holda rivojlanishini) loyihalash malakalarini shakllanishini; texnologik yondashuv (ta'lim jarayonini tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirish, texnologik madaniyat, texnologik muhit,

transformatsion faoliyat usullari, texnologik etika va estetika) texnik-texnologik malakalar takomillashuvini asoslaydi;

integrativ yondashuv (ta'lim mazmunini integratsiyalash, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ularni mantiqiy yaxlitlash, o'rganilayotgan ob'yektlarning xususiyatlarini tizimlashtirish) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar shakllanishini; innovatsion yondashuv (kreativ faoliyatda ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, pedagogik yangiliklarni qabul qilish, yangilik kiritishga va qo'llashga tayyorgarlik, ijodkor, yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish) konstruktiv malakalar takomillashuvini tushuntiradi;

individual-faoliyatli yondashuv (kasbiy faoliyat sharoitlari bilan bog'liq kasbiy shakllanishda yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar, shaxsning qiziqishlari, maqsadlari va faoliyat tizimini nazariy tahlili, kasbiy-shaxsiy axborot maydonini yaratish) kasbiy ta'lim troektoriyasini ishlab chiqish malakalari rivojlanishini; kompetentsiyali yondashuv (pedagogik qobiliyatlarni kompleks takomillashtirishda ijtimoiy moslashuvchanlik va kasbiy-pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, kasbiy-axloqiy sifatlar, kasbiy muhitni muvafaqqiyatli o'zlashtirish) tadqiqotchilik malakalari takomillashuvini; akmeologik yondashuv (kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish, insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etish, ijtimoiy tan olinish, o'z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qilish, refleksiya, ijodiy tafakkur, ta'limni ichki ehtiyojga aylanishi) kommunikativ malakalarni tarkib topishini izohlaydi;

akseologik yondashuv (qadriyatlar tizimini jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyatini, ijtimoiy funktsiyalarini, aksiologik ong, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg'usi, qadriyatlarni o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligini, ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish) tashkilotchilik malakalarini shakllanishini; dialogik yondashuv (tarbiyaviy ta'sirning dialogik tamoyili, o'qituvchining avtoritar pozitsiyasi va talabalarning bo'sunuvchi pozitsiyasini rad etib, o'zaro munosabatlarning sub'yekt-sub'yekt shaklida amalga oshirish, muloqotda sheriklar pozitsiyalarining muvozanatiga, fasilitatorlar va talabalar o'rtasida ishonch, hamkorlik muhiti ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishning asosi) istiqbolni ko'rish, prognoz qilish malakalarini shakllanishini tushuntiradi;

xyutagogik (evtagogik) yondashuv hayot davomida doimiy ravishda o'z-o'zini o'rganishga, o'z-o'zini rivojlantirishga yangicha yondashuv bo'lib, shaxsning mustaqil ravishda, o'z maqsadlari va qiziqishlariga muvofiq nimani, qachon va

qanday o'qishini aniqlashga imkon berib, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish indikatorlarini belgilashda asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy ta'limiy yondashuv(xyutogogik, akmeologik, tizimli, individual-faoliyatli, innovatsion, aksiologik, kompetensiyaviy, akmeologik, psixogenetik, texnologik, integrativ)lar integratsiyasi orqali oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish o'qituvchilari kreativ kompetentligi tuzilmasining falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari kreativlik malakalariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga imkon berdi. Ya'ni mazkur yondashuvlar kreativ kompetentlik murakkab jarayon ekanligini, uning mohiyatini tushunish lozimligini anglatadi. Tahlil etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida kreativ kompetentlikni kompleks tahlil qilish, falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai-nazardan ko'p qirrali hususiyatlarini o'rganish, kreativlikning ta'lim muhitiga ta'siri, uzluksiz malaka oshirish jaryonida kreativ o'qitishni rivojlantirish muammosi to'liq tadqiq etilmagan. Kreativlik keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, fanning faqat bitta sohasiga tegishli emas.

Psixologiyada kreativlik asosan ikki jihatdan: yangi narsalarni yaratishning psixologik jarayoni va ushbu jarayonda shaxsni ishtirok etishini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar to'plami sifatida o'rganiladi va kreativlikni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar (qobiliyatlar, motivlar, bilimlar, ko'nikmalar) mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: A.V.Brushlinskiy tafakkur va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog'liqligini, har qanday odamning tafakkuri doimo (hech bo'lmaganda minimal) kreativ, samarali, mustaqil bo'lishini izohlaydi. J.Gildfordning nazariy yondashuvlarida kreativlik-muammolarni aniqlash va qo'yish, ko'p sonli g'oyalarni yaratish, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, muammolarni analiz va sintez qilish qobiliyati sifatida qaralsa, E.P.Torrensning tadqiqotlarida kreativlik muammolarga, mavjud bilimlarning yetishmovchiligiga yoki mos kelmasligiga nisbatan sezgirlikning paydo bo'lish jarayoni sifatida tavsiflanadi. V.I.Andreev kreativlikni faoliyatining turi sifatida qarama-qarshilik, muammoli vazifaning mavjudligi, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, jarayon yoki natijaning yangiligi va o'ziga xosligi sifatida izohlaydi.

A.Maslouning talqinida shaxsning kreativligi intellektual qobiliyatlar orasida alohida tur sifatida har kimga xos bo'lgan, ammo atrof-muhit ta'siri ostida shaxs faoliyatida pasayib boradigan alohida yo'nalish deb izohlanadi; A.R.Aripjanova oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish muammosini

faoliyatli, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqishni taklif etadi; G.I.Ibragimova kreativlik qobiliyatini muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya asosida tahlil qiladi. F.Zokirova va Sh.Pozilovalarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va alaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi pedagog-tinglovchi, tinglovchi-tinglovchi yoki tinglovchi va ma'lum bir vositalar o'rtasidagi munosabatlarga yo'naltirilgan ta'lim turi deb tushuntiriladi.

NATIJARLAR

Biz o'z tadqiqotimizda kreativlik tushunchasini falsafiy nuqtai-nazardan jarayon sifatida, pedagogik jihatdan qobiliyat sifatida va psixologik jihatdan tafakkur operatsiyalari sifatida tahlil qilib, o'qituvchi kreativ kompetentligining mazmuni, tuzilishi, uni rivojlantirishning shart-sharoitlari, bosqichlari, indikatorlari va mexanizmlarini asoslab berishga yo'naltirdik va shu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o'qituvchining kreativ kompetentligi tuzilmasini ifodaladik (1.1-rasmga qarang).

Bizning fikrimizcha, kompetentlik murakkab tushuncha bo'lib, uning mohiyati bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lish bilan birga psixosijtimoiy (ko'nikma va yo'nalishlar bilan birgalikda) resurslardan foydalanish va ularni safarbar qilish yo'li bilan kasbiy ehtiyojlar majmuasini qondirish jaaryonini o'zida mujassam etadi.

O'qituvchining kreativ kompetentligi bilim, ko'nikma, qobiliyat, tafakkur va shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi va faoliyat jarayonida (pedagogik, kommunikativ, tashkiliy) namoyon bo'ladi. Kreativ kompetentlik muammoli vazifalarni yechishda ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik va tanqidiylik, sezgi, intiutsiya, o'ziga xoslik, ishonch, nostandart vazifalarni hal etish, tahlil, analiz va sintez, prognoz qilish va istiqbolni ko'rish, assotsiativlik, tasavvur, qarama-qarshilikka sezgirlik, empatiya, idrok, steriotiplarni yengish, tavakkal qilish, erkinlikka intilish kabi xususiyatlarni birlashtiradi. Demak, o'qituvchining kreativ kompetentligi kasbiy pedagogik faoliyatning turli bosqichlarida erishgan ijodiy yutuqlarini aks ettirib, yangi kasbiy mahsulot va yuqori samarador natijalarga erishish jarayoni sifatida talqin etildi.

Jarayon sifatida	Qobiliyat sifatida	Tafakkur va aqliy operatsiyalarda
Kreativ xulosalar yaratish jarayoni	Intellektual qobiliyatlar	Tezkor xotira
Muammoni yechishda mavjud bilimlar yetishmasligini anglash jarayoni	Mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati	O'ziga ishonch va mustaqil fikrlash
Farazlarni taklif etish	Refleksiya	Aqlning peshqadamligi
Tezlikda qaror qabul qilish	Tashabbuskorlik	O'z-o'zini nazorat va shaxsiy javobgarlik
G'oyalarni takomillashtirish jarayoni	Ijodkorlik. Ijodiy yo'nalganlik	Tafakkur tezligi
O'zini-o'zi hurmat qilish bilan bog'liq "Men" konsepsiyasi	Innovatsion qobiliyatga egalik	Eruditsiya va ichki sezgining rivojlanganligi
Tajriba va bilimga asoslangan qaror qabul qilish	Original g'oyalar yaratish qobiliyati	Boy tassavurga egalik
Qarorni shakllantirish jarayoni	Analitik qobiliyat	Tafakkurning egiluvchanligi
Voqea hodisalarni tezkor assimilyatsiya qilish jarayoni	Amaliy-kontekstli qobiliyat	Noan'anaviy fikrlash
Intellektual qiziqish va bilimga intilish	Sintetik qobiliyat	Istiqbolni anglash
Fikrlashning moslashuvchanligi jarayoni	Konstruktivlik	Nostandart qaror qabul qilish
	Topqirlik	Ichki sezgining rivojlanganligi
	O'ziga xoslik	
	Muammolarga sezgirlik	
	Ravonlik	

MUHOKAMA

Ijtimoiy-gumanitar fanlar zamonaviy ijtimoiy hodisalarni ob'yektiv baholashga yo'naltirilganligi sababli oliy ta'lim jarayonida quyidagi uchta funksiyani bajaradi:

aqliy rivojlantirish funksiyasi (mental developer function) ta'lim olubchining mentalitetida madaniyat, urf-odatlar, turmush tarzi, diniy e'tiqodlar, til orqali jamiyatning eng barqaror ma'naviy, axloqiy, madaniy qadriyatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi, dunyoqarashni shakllantirib, ijtimoiy muammolarni tahlil qilishda tarixiy va madaniy yondashuvlarning bog'liqligini hisobga olishga o'rgatadi;

ijtimoiy-gumanitar tafakkurni shakllantirish funksiyasi (function of the formation of socio-humanitarian thinking) ijtimoiy-gumanitar fanlarning xilma-xil

mazmunini tizimlashtirish, pedagogik nuqtai-nazardan bu fanlar mazmuniga madaniyatlararo yondashuvni tatbiq etish asosida talabalarda iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy fikrlashning asosiy elementlari- bag'rikenglik va dinlararo munosabatlar madaniyatini tarbiyalashni ta'minlaydi;

ijtimoiy-gumanitar intizom funksiyasi kontent integratsiyasi muammosi, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri, ob'yekt va hodisalar tizimi, madaniyatlarning xilma-xilligini qabul qilishga va hozirgi sharoitda uni tushunishga yordam berish, insonlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan anglash, shaxslararo muloqotda samarali ta'sir o'tkazish, xulq-atvorni boshqarish, o'zgarlar fikriga qaramlikni kamaytirish, tashqi ta'sirlarda qadriyatlar va xatti-harakatlar birligini saqlab qolish, ijtimoiy javobgarlik, ijtimoiy intellektni rivojlantirishni ta'minlaydi.

XULOSA

Shunga ko'ra global axborot muhitida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda to'rtta ko'nikmani: tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va kreativlikni shakllantirishga yo'naltirilishi kerak.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan tushuncha va terminlar, bizning fikrimizcha, yaxlit holda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligining mazmuni, strukturasi va o'ziga xosligini, shuningdek texnologik yondashuv asosida uning diagnostikasi va rivojlanishini belgilab beradigan birlamchi (asosiy) tushunchali-terminologik tizimini tashkil etadi.

Kreativlik tushunchasi turli xil ta'riflarga ega. Ular bir-biridan farq qiladi, biroq ularda ayrim o'xshash elementlar ko'zga tashlanadi, masalan, quyidagilar: o'qituvchining odatdagi va noan'anaviy vaziyatlardagi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan integrativ kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi (Tutolmin A.V., 2009); o'qituvchining innovasionlilik, mobillik, kreativlik singari sifat xarakteristikalarini o'zida jamlagan bo'lajak o'qituvchining integrallashgan kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi (Morxova I.V., 2015); kasbiy ijodiy faoliyatni amalga oshirishga nisbatan pedagogning tayyorgarligini ta'minlab beradigan, maxsus bilim, ko'nikma va motivlarning tizimini hamda kasbiy jihatdan muhim bo'lgan sifatlar to'plamini o'zida mujassamlashtiradigan shaxsning integrativ sifati (Paxtusova N.A., 2015 noan'anaviy vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini, ta'lim olayotganning bilimlari va tajribasiga tayangan ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyati va tayyorgarligini aks ettiradi (Plemyev V. V., Rassamagina F. A., 2016).

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2010-yil. 278 b.

2. Abdullayeva Sh. A. Hokimlik pedagogikasi. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2017. 178 b.
3. Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономастике на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза // корееведение в России: направление и развитие. – 2022. – т. 3. – №. 4. – с. 61-66.
4. Анохина Н.К. Педагогика.-М.: Университет, 2019. -232с.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии.-М.Академкнига, 2010.-246с.
6. Djuraev R.X. Talimda interfaol texnologiyalari. -Toshkent, 2010. –76 b.
7. Djo'rayev R. X., Turgunov S. T. talim menejmenti. - Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012 Yil. 167 b.
8. Grishina E.A. варианты, используемые в непринужденной речи // Инструментарий русистики: корпусные подходы. Slavica Helsingiensia 34 Helsinki, 2008 P. 63–91.
9. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. -T.: Me'ros, 2011.-144 b.
10. Kichuk N.V. Творчество как мировой бренд современного образования / Н. Кичук // Теория и практика эстетического воспитания в учебных заведениях: материалы Всеукраинской научно-практической конференции (21 мая 2021 год, г. Кропивницкий) / под ред. А. С. Радул. - Кропивницкий, 2021-275с.
11. Mirsoliyeva M. Oliy talim sharoiti rahbar va ustozlari kasbiy kompetentligi sifat darajasini belgilash masalalari. // "Talim, fan va innovatsiya" jurnallari, 2017, 4-dol.
12. Ruzmetova S.T. Talabalar bilimi transformasiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari // "Boshlang'ich talimga xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning istiqbollari". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 15- aprel, 2021-yil. 186 bet.
13. Zimnyaya I.A. Педагогическая психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям. Изд.е 2-е. Москва: Логос, 2009г. С.382.
14. G'oziyev E.E. Psixologiya (yoshlar psixologiyasi). Pedagogika institutlari va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1994 yil 224 b.
15. Alkarova F.N. Talabalarning amaliy kuchini faollashtirish vaziyatlarini yaratish tizimi. ("Texnologiyasi" talimi misoli). 13.00.01.-Nazariyalar pedagogikasi.

Pedagog talimotlar tarixi. Pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2010. 15-16 b.

“Innovations in Science and
Technologies”